

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA BOSHQARISHNING MAVJUD HOLATI VA MUAMMOLARI.

A.A.Temirov

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10868448>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi kunda yurtimizdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini innovatsion yondashuvlar asosida boshqarishning mavjud holati hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari innovatsion yondashuvlar asosida boshqarishning muammolarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kompetentsiya, kompetentli, innovatsiya, novatsiya, aspekt, kompleks, konservatizm va inertlik.

## CURRENT STATE AND PROBLEMS OF MANAGEMENT OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS BASED ON INNOVATIVE APPROACHES.

**Abstract.** This article describes the current state of managing preschool educational organizations in our country based on innovative approaches, as well as specific features of the problems of managing preschool educational organizations based on innovative approaches.

**Keywords:** Competence, competent, innovation, novation, aspect, complex, conservatism and inertia.

## СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ.

**Аннотация.** В статье описано современное состояние управления дошкольными образовательными организациями в нашей стране на основе инновационных подходов и особенности проблем управления дошкольными образовательными организациями на основе инновационных подходов.

**Ключевые слова:** Компетенция, компетентность, новаторство, новация, аспект, комплекс, консерватизм и инерция.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini innovatsion yondashuvlar asosida boshqarishning mavjud holati va muammolari dunyoda ko'p mamlakatlar uchun muhim masala hisoblanadi.

Innovatsiyalar ta'lim sohasida yangi texnologiyalarning qo'llanishini, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilashni, va ta'lim jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida yanada yaxshilashni maqsad qiladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini innovatsion yondashuvlar asosida boshqarishning muammolari shu bilan bog'liq. Bir qancha muammolarni masalan, tashkilotlarda eng so'nggi texnologiyalardan qanday foydalanish, yangi metodlarni qo'llash, mashg'ulot jarayonlarini tuzilishi, va boshqalar kabi muammolarni o'z ichiga oladi.

Boshqa muammolar innovatsion yondashuvlarni boshqarish jarayonida innovatorlikka qat'iy ravishda harakat qilish va uning natijalarini baholashni talab qiladi. Muammolar innovatsion yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslarni topish, tarbiyachilar va direktorlarning innovatsiyalarni qabul qilish va ularni amalga oshirishga mo'ljallangan

muvofiqlashuvlarni topish, innovatsion yondashuvlarni qo'llab-quvvatlashdagi texnika va tizimlarni takomillashtirish kabi amaliy muammolar bo'ladi. Bu muammolarni hal qilish uchun tarbiyachilarni faoliyat jarayoni sifatini nazorat qilish, va tarbiyachilarni innovatsion g'amxo'rlik va ish bilan bog'liq masalalar ustida yangi bilimga ega qilish zarur.

Yana shuni ta'kidlash joizkiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini innovatsion yondashuvlar asosida boshqarishdagi muammolar aksariyat bilan ta'lim jarayonini yangilash, ma'naviyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim dasturlari va metodikasi, pedagoglarni tayyorlash va ma'naviy materiallar yaratish bilan bog'liq bo'lgan.

Masalan, yangi texnologiyalar va interaktiv dasturlar keng tarqalgan bo'lishi bilan birga, pedagoglar avlodlar orasidagi farqlar bilan ishlash va dasturlarini moslashtirish konseptsiyasi muammosi paydo bo'lishi mumkin. Buning bilan birga, innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish uchun moliyaviy, resurs va infrastruktur bo'yicha muammolar ham ko'rinadi.

Tadqiqotlarimiz tahlilida bugungi kunda yurtimizdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini innovatsion yondashuvlar asosida boshqarishning mavjud quyidagi holatini keltirishimiz mumkin:

**1. Texnologiyalarni integratsiya qilish:** Bugungi dunyoda, ta'lim muassasalari o'zlariga ma'qullangan texnologiyalardan foydalanib, ta'lim jarayonini eng ishonchli, samarali va jadal rivojlanayotgan holatga olib kelishadi.

**2. Ta'lim tashkilotlari orasida aloqalar:** Innovatsion boshqarishning bir qismi, muassasalar orasida aloqalar va hamkorlikni rivojlantirishga asoslangan.

**3. Pedagoglarni tayyorlashi:** Innovatsion boshqarishda, pedagoglarning yangi texnologiyalardan foydalanishlari va ularni ta'lim jarayonida qo'llab-quvvatlashlari muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini innovatsion yondashuvlar asosida boshqarishning muammolari haqida to'xtalib o'tar ekanmiz. Biz avvali innovatsiyani o'ziga to'xtalib o'tamiz. Innovatsiya - bu yangi yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llash hamda ularga asoslangan yangi mavqe yaratishdir. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida, maktabgacha ta'lim tashkilotlari innovatsion yondashuvlar asosida boshqarishning quyidagi muammolari mavjudligi aniqlandi:

**1. Moliyaviy muammolar:** Innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarga tegishli muammolar mavjud.

**2. Amaliy jihatdan beqarorlik:** Ba'zi ta'lim tashkilotlari innovatsion jarayonlarni amalga oshirishda ustuvorliklarni ko'rsatmaydi.

**3. Texnologiyalarning rivojlantirilishida chegaralar:** Ba'zi tashkilotlarda so'nggi texnologiyalardan foydalanishda texnologik infratuzilmasi chegaralarni belgilaydi.

**4. Tarbiyachilar va direktorlarni tayyorgarligi:** Innovatsion yondashuvlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining tayyorgarligini talab qiladi. Bu, ularni yangi texnologiyalar va o'zaro hamkorlikni o'rganish va ularni amalga oshirish uchun ushbu yo'nalishda bilimlarni oshirishni talab qiladi.

**5. Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik:** Innovatsion yondashuvlar asosida yangi texnologiyalar va o'zaro hamkorlikni amalga oshirishda, tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi tushunchalar va ishonch kengayadi. Ushbu hamkorlikni bugungi kunda yaxshi yo'ga qo'yilmaganligi maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda boshqaruv jarayoniga beriladigan

tashqi baholash jarayonini susaytiradi. Bu esa boshqaruv jarayonida bir muncha muammolarga olib kelishi mumkin.

**6. Pedagoglarni bilim va malakalarini yangilash:** Innovatsion yondashuvlar faoliyatni yang'ilash uchun pedagoglarni tizimli ravishda innovatsion yondashuvlarga yo'naltirilgan o'quv kurslarida o'qitish talab etadi. Bunday kurslarning mavjud emasligi va bugungi kunda malaka oshirish kurslarida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglariga ajratilgan o'quv soatlarini tahlili shuni ko'rsatdiki boshqaruvga oid modular faqatgina direktorlarning yuklamasiga kiritilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda malakaviy qo'llab-quvvatlash muammosi ham tug'uladi. Bunda tarbiyachilarga kerakli bilim va malakalarni oshirish va rivojlantirish uchun asosiy resurs innovatsion yondashuvlari qo'llab-quvvatlanmaganligi keltirishimiz mumkin. Buni esa mavjud muammolardan biri deb qarashimiz mumkin.

**8. Texnologiyalar va infratuzilma:** Innovatsion yondashuvlar uchun kerakli texnologiyalar va infratuzilma yaratish, ularni molyaviy resurslar bilan ta'minlash, investitsiyalash hamda ishga tushirish muammolari mavjud.

**9. Ta'lim-tarbiya uslubiyati:** Innovatsion yondashuvlar bilan ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishda muammolar ko'rinadi. Tarbiyalanuvchilarga yangi texnologiyalar bilan intellektual ravishda ta'lim jarayoni olib borilishi zarur. Bu muammoni hal qilish uchun, ta'lim tashkilotlari hamda ularning rahbarlari, pedagoglar va tarkibiy qismidan innovatsion yondashuvlar to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish talabini qo'yadi.

**10. Ta'lim-tarbiya jarayoni direktor tomonidan monitoring qilish va baholash:**

Innovatsion yondashuvlar tarbiyalanuvchilarning chuqurroq ma'lumot olishi, tarbiyachilar tomonidan ta'lim jarayonida yordamchi dasturlardan va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish holatini nazorat qilish hamda tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini baholash jarayoni mavjud emas. Bu esa boshqaruvdagi samaradorlikni ta'minlash uchun innovatsion yondashuvni muvofiqlashtirishda muammo sifatida ko'rinadi.

Bu muammolar bilan bog'liq ravishda, tashkilotni innovatsion yondashuvlar asosida boshqarish uchun o'zlashtirilgan ta'lim va tizimlar yaratish uchun keng ko'lamli harakatlar lozim.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda bir qancha raqamli platformalarning mavjudligi va ushbu platformalar bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlar asosida boshqarishni takomillashtirishga yo'naltirilgan mobil ilovaning ham zaruriyati ko'rinib turibdi. Yana shuni ta'kidlash joizkiy, tarbiyachilar va ota-onalar bilan hamkorlik jarayonini kengaytirishda raqamli texnologiyalardan kengroq foydalanish zarur deb hisoblaymiz.